



ESHITISHDA MUAMMOSI BOR BOLALAR

Andijon davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim fakulteti

Maxsus pedagogika: logopediya yo'nalishi

Talabasi Ro'ziboyeva Diyora Ilyosbekqizi

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15258386>

Annotatsiya: Eshitish qobiliyati buzilgan shaxslarni sifatli o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish va reabilitatsiya qilishning shartlaridan biri bu mutaxassislarining har birining eshitish funksiyasi holatining xususiyatlarini to'g'ri tushunish va ularni barcha turdagi psixologik va ruhiy kasalliklar tizimida hisobga olishdir. Eshitish holatiga ko'ra eshitish qobiliyati zaif (eshitadigan) va karlar farqlanadi. Eshitish qobiliyatining yo'qolishi - bu doimiy eshitish qobiliyatining yo'qolishi.

Kalit so'zlar: daktil nutq, tafakkur, anomaliya, anomal bolalar, sezgi, vizual idrok, teri sezgisi, surdapedagogika, psixologik.

Bola nutqining o'sib borishi tovushlar talaffuzi, fiziologik va fonematik eshitishning kamol topib borish darajasi bilangina xarakterlanib qolmay, balki eng muhimi — o'z nutqi va atrofdagilar nutqidagi so'zlarning tuzilishini, tovush tarkibini farqlay olish qobiliyati bilan ham xarakterlanadi. So'z tarkibini anglab olishdan iborat bu qobiliyat gramatik va leksik komponentlarning rivojlanishida ham muhim ahamiyatga ega. Eshitishning ahamiyati shundan iboratki, odam hayotdagi ba'zi voqealarni ko'rgandagiga nisbatan, ularning mazmunini eshitganida to'liqroq tushuncha oladi. Masalan, odam biror namoyishni televizordan ovozsiz tomosha qilganda olgan tushunchasiga nisbatan shu namoyishning mazmunini radio orqali eshitganida to'liqroq tushunchaga ega bo'ladi. Binobarin, eshitish organining faoliyati normal bo'lishi, avvalo, har bir odamda bolaligidan boshlab nutq paydo bo'lishi va rivojlanishiga imkon beradi. Bolaning keyingi hayoti davrida eshitish va nutqning birgalikda rivojlanishi uning tarbiyalanishida, bilim olishi, hunar o'rganishi, musiqa san'atini tushunishi va barcha ruhiy faoliyatining shakllanishida muhim o'rin tutadi. Bu kabi ishlarni amalga oshirilishida eshitish a'zosining benuqson ishlashi katta ahamiyatga ega. Eshitish organi bo'lgan quloq bosh suyagining chakka qismida joylashgan. U uch qismdan: tashqi, o'rta va ichki quloqdan iborat. Kar bolalarning 25—30 foizida eshitish nuqsonlari tug'ma bo'ladi. Bunga sabab: onaning xomiladorlik davrida turli kasalliklar, masalan, gripp bilan kasallanishi, ota-onalarning ichkilik ichib turishi, onaning xomiladorlik davrida bilar-bilmas dori-darmonlarni iste'mol qilishi (ayniqsa, streptomitsin, xinin, singari dorilarni), xomilaning shikastlanishi; irsiyat, genetik faktorlar (quloq tuzilishidagi patologik o'zgarishlar bo'lishi, masalan, eshitish yo'li atreziyasi bituvi). Eshitishdagi orttirilgan nuqsonlar quloq yoki eshitish analizatorining tuzilishidagi kamchiliklardan kelib chiqishi mumkin. Bunga oliy nerv markazi, o'tkazuvchi yo'llar yoki quloqning o'zidagi o'zgarishlar sabab bo'ladi. Bolaning ilk yoshida otit, parotit (tepki) meningit, meningoensefalit, qizamiq, qizilcha, gripp kasalliklari bilan kasallanishi ba'zi hollarda karlik yoki turli darajalardagi zaif eshitishga olib kelishi mumkin. Zaif eshituvchi bolalar o'z navbatida eshitish qobiliyatining nechog'lik buzilganiga qarab yengil, o'rta va og'ir darajali kamchiligi bor bolalarga bo'linadi. Yengil darajadagi zaif eshituvchi bolalar ovoz bilan gapirilgan nutqni 6—8 m masofadan ovoz chiqarmay, shivirlab gapirilgan gapni quloq suprasidan 3—6 m masofada eshitadi. O'rta darajadagi qulog'i og'ir bolalar ovoz chiqarib gapirilgan gapni 4—6 m, ovozsiz pichirlab gapirilganini 1—3 m masofadan eshitadi. Og'ir darajali qulog'i zaif eshituvchi bola o'rta me'yorda ovoz bilan gapirilgan gapni quloq suprasidan 2 m, shivirlashni esa 0,5 m masofadan eshitadi, xolos. . Yengil darajadagi zaif eshituvchi bolalar sog'lom tengdoshlari qatorida ommaviy bog'cha va maktabda tarbiyalanishi mumkin. Biroq ularga aloxida munosabatda bo'lish, ular uchun qulay shart-sharoitlar yaratish talab etiladi. Eshitish qobiliyati zaiflashgan bolalar bilan



ishlashda surdopedagoglar katta yutuqlarga erishmoqdalar. Ushbu toifadagi anomal bolalar maxsus kechki maktablarda ta'lim olganlaridan keyin oliy o'quv yurtlarini ham muvaffaqiyatli bitirib chiqmoqdalar, mamlakatimizning turli korxonalarida hamma bilan barabar mehnat qilmoqdalar.

ESHITUV A'ZOSI RIVOJLANISHINING BUZILISHI

Bunda eshituv a'zosining noto'g'ri rivojlanganligi kuzatiladi, ya'ni a'zoning shakli, tuzilishi o'zgaradi. Bu uch xil turda bo'ladi. **1. Og'ir turida** – tashqi quloqning tog'ay qismi pastga va ko'proq old tomonga yo'nalgan bo'ladi, bundan tashqari tashqi quloqning suyak qismi, nog'ora bo'shlig'i, undagi suyakchalar va eshituv nayi butunlay bo'lmasligi mumkin.

2. O'rtacha turida – tashqi eshituv yo'li old tomonda joylashgan bo'lib, uning suyak qismi yo'q bo'lishi mumkin. Nog'ora bo'shlig'i kichik bolg'acha, sandoncha suyakchalar yaxshi rivojlanmay, bir-biri bilan yopishgan holda bo'ladi.

3. Yengil turida – tashqi eshituv yo'lining suyak qismi juda tor, quloq parda kichik, xira ko'rinadi. Ichki quloqda ham turli xil tug'ma nuqsonlar bo'lishi mumkin. Bu to'g'rida turlicha fikrlar va usullar bor. Eshitish qobiliyatini yaxshilash maqsadida jarrohlik usulidan foydalaniladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tashqi, o'rta va ichki quloqning tug'ma nuqsonlari mustaqil yoki boshqa a'zolarining tug'ma nuqsonlari yuz nervi falaji, pastki jag'ning rivojlanmay qolishi, bronxoektaz va hokazolar bilan birga uchrashi mumkin.

O'rta va ichki quloqning tug'ma nuqsonlari ham quloq suprasi hamda tashqi eshituv yo'li nuqsonlari bilan birga uchrab turadi. Bu nuqsonlar quyidagicha bo'lishi mumkin.

Yengil turida – tashqi eshituv yo'lining suyak qismi juda tor, quloq parda kichik, xira ko'rinadi. Ichki quloqda ham turli xil tug'ma nuqsonlar bo'lishi mumkin.

O'rtacha turida-tashqi eshituv yo'li old tomonda joylashgan bo'lib, uning suyak qismi yo'q bo'lishi mumkin. Nog'ora bo'shlig'i, kichik bolg'acha, sandoncha suyaqlar yaxshi rivojlanmay, bir-biri bilan yopishgan holda bo'la

Og'ir turida – tashqi quloqni tog'ay qismi pastda va ko'proq old tomonga yo'nalgan bo'ladi, bundan tashqari quloqning suyak qismi, nog'ora bo'shlig'i, undagi suyaqlar va eshituv nayi butunlay bo'lmasligi mumkin.

Yengil turida – tashqi eshituv yo'lining suyak qismi juda tor, quloq parda kichik, xira ko'rinadi. Ichki quloqda ham turli xil tug'ma nuqsonlar bo'lishi mumkin.

Tashqi quloqning kasalliklari. Tashqi eshituv yo'lini kasalliklari – (yallig'lanishi tashqaridan har-xil infeksiyalarni tushishidan hosil bo'ladi, quloqni xar-xil narsalar bilan kovlash, qashish). Yallig'lanish atreziyaga olib keladi – ya'ni tashqi eshituv yo'lining o'sib, bekilib qolishiga. Atreziyaga yana (kuyish, jarohatlanish, o'q yoyish natijasida) chandiqlar hosil bo'lishi natijasida yuz beradi va eshitish qobiliyati turg'un pasayadi. Agar tashqi eshituv yo'lida ozgina yoriq bo'lsa ham eshitish qobiliyati o'zgarmaydi. O'rta quloqda yiringli jarayon bo'lsa tashqi quloqni bekiq holati yomon oqibatga olib keladi, chunki yiring tashqariga oqib chiqolmay, balki ichki quloqqa va miya pardalariga o'tadi.

Tashqi eshituv yo'li bekilib qolganda asosan tovush o'tkazish apparati buziladi, ya'ni past tovushlarni qabul qilish buziladi; yuqori tovushlar qabul qilinadi; suyak o'tkazuvchanligi saqlanib, xatto biroz oshishi mumkin.

Nog'ora pardani kasalliklari. Parda nuqsonlari, jarohatlanishi alohida kam uchraydi. Uning tug'ma yo'q bo'lishi tashqi quloq atreziyasi bilan, nog'ora bo'shlig'ini rivojlanmay qolishi bilan, eshituv suyakchalarini, o'rta quloqni mushaklarini rivojlanmay qolishi bilan o'tadi.

O'rta quloq kasalliklari. O'rta quloq kasalliklari katta yoshdagi odamlarga qaraganda bolalarda ko'proq uchraydi. Bu kasalliklarni ichida eng ko'p uchraydiganlari:

1. O'rta quloqning katari
2. O'rta quloqning yiringli yallig'lanishi

O'rta quloq katari.



Sabablari: gripp, angina, tumovda burun halqumida yallig‘lanish bo‘lib, bu yallig‘lanish Yevstaxiy nayga o‘tadi va natijada shilliq parda yallig‘lanib burtishi tufayli bu yo‘l berkilib qoladi. Burun xalqumida poliplar, adenoidlar o‘sishi ham Yevstaxiy yo‘lini berkitadi. O‘rta quloqdagi havo qisman shilliq parda tomonidan suriladi, natijada nog‘ora bo‘shlig‘idagi bosim pasayadi, tashqi bosim yuqori bo‘lishi tufayli nog‘ora parda ichki quloq tomon tortiladi, nog‘ora pardani harakati pasayadi, quloqda shovqin paydo bo‘ladi. Eshitish qobiliyatini pasayishi eng asosiy qoldiq hisoblanadi. Yallig‘lanishdan keyin qolgan paylar, chandiqlar nog‘ora pardani o‘zgartiradi, uni nog‘ora bo‘shlig‘i tomon tortib qo‘yadi va pardani tebranishi buziladi. Paylar, chandiqlar eshituv suyakchalariga tarqalib uzangani oyokq qismi oval teshikka bitib, birikib qoladi, ayrim xollarda doira teshik ham qattiq berkilib qoladi. Havo orqali tovushni o‘tkazish buzilib, eshitish qobiliyati turg‘un pasayadi. Suyak orqali eshitish saqlanganligi tufayli karlik kuzatilmaydi.

Otoskleroz. Otoskleroz suyak qobigining o‘ziga xos kasalligi bo‘lib, yoshlarda ham uchraydi va eshitish qobiliyatining tobora pasayib borishi bilan ajralib turadi, 80-85% ayollarda uchraydi. 70% kasallik 20-40 yoshida boshlanadi – bu irsiy kasallik degan taxmin bor. Homiladorlik va tug‘ish eshitish qobiliyatini keskin pasayishiga sabab bulishi mumkin. Bunda suyak labirintida suyak to‘qimalari o‘sib rivojlanib ketadi. Ko‘proq jarayon dahliz darchasining oldida joylashib o‘zanganing oldingi oyoqchasiga qarab o‘sib kiradi. Buning natijasida eshitish qobiliyatining pasayishi va shovqin paydo bo‘ladi. Odatda bu jarayon bitta quloqda boshlanib bir necha oy, yillardan so‘ng ikkinchi quloqda paydo bo‘ladi.

Ichki quloqning yallig‘lanishi. Labirintit – ichki quloqning o‘tkir yoki surunkali yallig‘lanishi bo‘lib u chegaralangan yoki tarqalgan xarakterga ega bo‘lishi mumkin. *Kelib chiqishiga qarab quyidagilarga bo‘linadi:* timponagen, meningogen, gemotogen va jaroxat tufayli. *Timponogen labirintit* ko‘pincha surunkali, ba‘zan esa, o‘rta quloqning o‘tkir yallig‘lanishining asoratlari bo‘lib, bu kasalliklarga nisbatan labirintit 1,5-5% tashkil etadi. Yallig‘lanish jarayoni o‘tkir hamda surunkali otitda o‘rta quloqdan ichki quloqqa o‘tishi chig‘anoq darchasining membranasimon tuzilmasi va daxliz darchasi orqali yuz beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

5. D.R.Matazizova “Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarning klinik asoslari” Toshkent “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti 2018.
6. M.Y.Ayupova “Logopediya” Toshkent “O‘zbekiston faylasuflari million jamiyati” nashriyoti 2007.
7. P.M.Po‘latova, L.N.Nurmuhammedova, D.B.Yakubjonovna “Maxsus pedagogika” Toshkent “Fan va texnologiya” nashriyoti 2014.
8. V.S.Raximova “Defektologiya asoslari” Toshkent “Niso Poligraf” nashriyoti 2014.